



UDK 811.133.1:811.512.133:81'373.21:81'27

Bekmurodjon MIRZAYEV,
O‘zbekiston milliy universiteti tayanch doktoranti
E-mail: mirzayev_b@nuu.uz

FRANSUZ VA O‘ZBEK TILLARIDA OY NOMLARINING LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI

Annotatsiya

Maqolada fransuz va o‘zbek tillaridagi oy nomlari lingvomadaniy birlik sifatida tahlil qilinadi. Oy nomlarining etimologik asoslari, nomlanish modellari, imlo-me‘yoriy xususiyatlari hamda badiiy diskursda yuzaga chiqadigan ifoda qatlamlarini yoritiladi. Natijalar tarjima, til madaniyati va lingvomadaniy tahlil uchun amaliy xulosalar beradi.

Kalit so‘zlar: oy nomlari, kalendar leksikasi, nominatsiya, etimologiya, onomastika, lingvomadaniyat, badiiy diskurs, qo‘shimcha ma‘no.

ЛИНГВИСТИКО-КУЛЬТУРНЫЕ ОСОБЕННОСТИ НАЗВАНИЙ МЕСЯЦЕВ ВО ФРАНЦУЗСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ

Аннотация

В статье анализируются названия месяцев во французском и узбекском языках как лингвокультурные единицы. Рассматриваются их этимологические основания, модели номинации, орфографические нормы и коннотативные слои, актуализируемые в художественном дискурсе. Результаты применимы в лингвокультурологии, переводеведении и исследованиях речевой нормы.

Ключевые слова: названия месяцев, календарная лексика, номинация, этимология, ономастика, лингвокультура, художественный дискурс, коннотация.

LINGUISTOCULTURAL FEATURES OF MONTH NAMES IN FRENCH AND UZBEKISTAN

Annotation

This paper examines French and Uzbek month names as linguocultural units. It explores etymological foundations, naming patterns, orthographic conventions, and connotative meanings activated in literary discourse. The findings are relevant for linguocultural research, translation studies, and language norm analysis.

Keywords: month names, calendar vocabulary, naming patterns, etymology, onomastics, linguoculture, literary discourse, connotation.

Kirish. Til va madaniyat munosabati lingvokulturologiya doirasida til birliklarini madaniy xotira va ijtimoiy tajriba ifodalari sifatida talqin qilish orqali izohlanadi. Taqvim leksikasi (hafta kunlari, oylar, fasllar) tilda vaqtni segmentlashning eng barqaror vositalaridan biri bo‘lib, u ijtimoiy ritm, marosimiy amaliyot, tarixiy xotira va tabiat kuzatuvlarining izlarini ham saqlaydi. Shu bois oy nomlari oddiy “sana ko‘rsatkichi” emas, balki madaniy ifoda vazifasini bajaruvchi lingvomadaniy birlik sifatida talqin qilinadi. Fransuz tilidagi oy nomlari lotin-rim an‘anasiga bevosita ulangan. Ularning bir qismi mifologik nomlar (masalan, Janus va Mars), bir qismi eponimik (Julius Caesar, Augustus), yana bir qismi esa qadimgi rim sonlash tizimi bilan motivatsiyalangan. O‘zbek adabiy tilida esa yanvar–dekabr qatori, asosan, xalqaro (gregorian) nomlarning o‘zlashgan va me‘yorlashgan shakllari sifatida qo‘llanadi. Shuningdek, xalq tilida burj-oy nomlari (Hamal, Savr, Javzo, Saraton, Asad, Sunbula, Mezon, Aqrab, Qavs, Jadiy, Dalv, Hut) hamda hijriy-qamariy oylar parallel qatlam sifatida madaniy xotirada yashaydi. Ushbu ko‘pqavatlilik o‘zbek zamon tushunchasining “amaliy-diniy-astronomik” kesishmalarida shakllanganini ko‘rsatadi.

Maqolaning dolzarbligi shundaki, fransuz va o‘zbek tillarida oy nomlari ko‘p hollarda grammatik yoki imlo masalalari doirasida tilga olinadi, ammo ularning etimologiyasi, normativ yozuv talablari va badiiy diskursdagi ifoda imkoniyatlari bir butun tizim sifatida yetarli yoritilmagan. Maqolaning maqsadi fransuz va o‘zbek tillarida oy nomlarining etimologik va nominativ modeli, imlo-me‘yoriy xususiyatlari, badiiy diskursdagi ifodakanishi

bo‘yicha chog‘ishtirma tahlilini berishdir. Tadqiqot savollari quyidagilardan iborat: (a) fransuz va o‘zbek oy nomlari qaysi tarixiy-mabaviy qatlamlarga tayanadi; (b) oy nomlari imlo va uslub me‘yorlarida qanday rasmiylashadi; (c) oy nomlari adabiy matnlarda qanday semantik-pragmatik vazifalarni bajaradi; (d) aniqlangan o‘xshash va farqlar tarjima hamda lingvomadaniy talqin uchun qanday amaliy xulosalar beradi.

Adabiyotlar tahlili. Rus olimasi V.A.Maslova lingvokulturologiyani til birliklarida aks etgan madaniy ma‘no, qadriyat va stereotiplarni tizimli o‘rganuvchi yo‘nalish sifatida asoslaydi. U leksik va onomastik birliklar madaniy informatsiya tashuvchisi sifatida yuqori darajada aniqlashtirilgan qatlam ekanini ko‘rsatadi[1]. Kalendar leksikasi, ayniqsa oy nomlari, vaqtni segmentlash va ijtimoiy faoliyat ritmini muvofiqlashtirish vazifasini bajaradi. Shu bilan birga, oy nomlari tarixiy-siyosiy o‘zgarishlar, diniy marosimlar, agrar xo‘jalik, mifologik tasavvurlar bilan bog‘langan nominatsiya modellari orqali madaniy qatlamlarni saqlaydi. Demak, oy nomlari “oddiy atama” emas, balki til va madaniyatning kesishgan nuqtasida joylashgan lingvomadaniy birlikdir.

V.N.Teliya tomonidan til birliklari (jumladan, nomlar) madaniy kontekstda ikkilamchi ma‘no hosil qilishi, diskursda esa qadriyatlar va interpretatsiyalarni faollashtirishi nazariy jihatdan asoslangan[2]. Bunda so‘z yoki nom o‘zining asosiy denotativ vazifasidan tashqariga chiqib, jamoa xotirasi, urf-odat, tarixiy tajriba, stereotip va qadriyatlar bilan “boyigan” semantik fondni ishga soladi. Ya‘ni til birligi madaniy kodlar bilan bog‘langan holda yangi talqinlar maydonini ochadi. Uning qarashiga ko‘ra til birligi (jumladan, nom) faqat

lug'aviy ma'noni bildirib qolmaydi. U madaniy muhitga kirganda qo'shimcha ma'no qatlamini hosil qiladi. Boshqacha aytganda, so'z yoki nomning asosiy ma'nosiga xalqning tarixiy tajribasi, urf-odati, tasavvuri, qadriyatlar va baholash mezonlari "yopishib", uni mazmunan boyitadi. Shu sababli til birligi "oddiy belgi"dan "madaniy mazmun tashuvchi belgi"ga aylanadi.

Nutqda esa ana shu qo'shimcha ma'no qatlamlari faollashadi. So'z ortidan baho, munosabat va talqin uyg'onadi. Masalan, oy nomi oddiy vaqt ko'rsatkichi bo'lib qolmay, "bahor – yangilanish", "kuz – yakun" kabi ma'naviy-baholovchi ma'nolarni ham uyg'otishi mumkin. Demak, Teliya nazariyasida qo'shimcha ma'no madaniyatning tilda aks etgan ko'rinishi bo'lsa, nutq esa shu madaniy mazmuni har safar ishga tushiradigan maydondir.

Tadqiqot metodologiyasi. Nazariy-metodologik asos sifatida lingvokulturologiya, onomastika hamda nominatsiya nazariyasi qabul qilindi. Onomastika doirasida A.V.Superanskayaning atoqli otning umumiy nazariyasiga oid qarashlari[3] hamda V.A.Nikonovning onomastik birliklarni tarixiy-ijtimoiy fon bilan bog'lab talqin qilish yondashuvi[4] metodologik tayanch bo'lib xizmat qildi.

Analitik usullar: etimologik tahlil (nomning tarixiy ildizi), nominatsiya tahlili (nomlash modeli va semantik "tag qatlam"), normativ-grafik tahlil (imlo, variantdoshlik), diskursiv-semantik tahlil.

Natijalar. Natijalar uch yo'nalishda umumlashtirildi:

1) fransuz oy nomlarining etimologik-madaniy qatlamlari; 2) o'zbek oy nomlarining normativ shakli va variantdoshlik; 3) badiiy diskursda oy nomlarining ifodaviy vazifalari.

1. Fransuz oy nomlarida etimologik-madaniy qatlamlari. Fransuz oy nomlarining aksariyati lotin tilidagi eski shakllardan kelib chiqqan bo'lib, ular Rim taqvim bilan bog'liq tarixiy qatlamni hozirgacha saqlab keladi. Bu nomlarda uch xil asosiy ma'no tayanchi ko'zga tashlanadi. Birinchisi, ayrim oylar nomi tarixiy shaxslar nomi bilan bog'langan (juillet, août) bo'lib, bu holat Rim davri siyosiy hayotining tildagi izini ko'rsatadi. Ikkinchisi, ayrim oylar nomi qadimgi xudolar va e'tiqodlar bilan tutash (janvier, mars, juin) bo'lib, bu qadimgi diniy tasavvurlar qatlamining saqlanganini bildiradi. Uchinchisi esa sentyabr–dekabr nomlarida son ma'nosi bilan bog'liq ildizlar saqlanib qolganidir[5]. Garchi bugungi taqvimda bu oylar 9–12-oylarga to'g'ri kelsa-da, nomlarning "yetti–o'n" sonlariga ishora qilishi taqvimning qadimda boshqacha tartibda boshlanganini eslatadi. Bunday holat fransuz tilining eski nomlarni asrab qolishga moyilligi, ya'ni tarixiy shakllarning tilda uzoq yashab qolishi bilan izohlanadi[6].

Quyida fransuz tilidagi oy nomlarini etimologik izohlar bilan qayd etiladi:

1) janvier – Qadimgi Rimda "boshlanish", "eshik" va "o'tish" timsoli sanalgan xudo Yanus (Janus) nomi bilan bog'liq. Yil boshi mazmuni bilan uyg'un.

2) février – lotincha februa, februar bilan bog'liq. Qadimgi Rimda "poklanish, tozalanish" marosimlari (yil oxiriyil boshi o'tish davri) bilan tutash oy.

3) mars – Qadimgi Rimda urush xudosi Mars nomi bilan bog'liq. Qadimiy taqvim tasavvurlarida yil davriyligi bilan tutash qatlamni bildiradi.

4) avril – lotincha aprilis nomidan olingan bo'lib bahorning ochilish-uyg'onish davrini bildiruvchi qadimiy nom. Ko'pincha "ochilish, yashnash" mazmuni bilan bog'lanadi.

5) mai – Maia nomi bilan bog'lanadi. Qadimgi Rim an'anasida bahor, o'sish va hosildorlik tasavvurlari bilan tutash mifologik qatlamni eslatadi.

6) juin – Qadimgi Rimda nikoh va oilaga daxldor xudo Junon nomi bilan bog'liq. Oy nomida antik e'tiqod izlari saqlangan.

7) juillet – Yuliy Sezar (Jules César) sharafiga nomlangan oy.

8) août – imperator Avgust (Auguste) sharafiga nomlangan oy.

9) septembre – lotincha septem ("yetti") ildizidan: qadimiy Rim taqvimida yil boshi boshqacha bo'lgani uchun "yetti" ma'nosi bugungi tartibga mos kelmay qolgan tarixiy iz.

10) octobre – lotincha octo ("sakkiz") ildizidan: qadimiy sanash tartibidan qolgan tarixiy qatlam.

11) novembre – lotincha novem ("to'qqiz") ildizidan: taqvim boshining siljishini eslatuvchi etimologik iz.

12) décembre – lotincha decem ("o'n") ildizidan: qadimiy sanash tizimidan qolgan tarixiy belgidir.

2) O'zbek oy nomlarining normativ shakli va variantdoshlik. O'zbek adabiy tilida yanvar–dekabr qatori asosan xalqaro (gregorian) oy nomlarining moslashgan shakllari sifatida me'yordashgan. Bu tizim semantik motivatsiyadan ko'ra amaliy-rasmiy ehtiyoj (hujjatlashtirish, ta'lim, matbuot) bilan bog'liq. Shu bois, etimologik "ichki ma'no" ko'pincha yashirin bo'lib, nominatsiya ko'proq o'zlashma birlikning fonetik-grafik moslashuvi orqali namoyon bo'ladi.

Oy nomlari turdosh ot sifatida kichik harf bilan yoziladi hamda -da, -ning, -ga kabi kelishik qo'shimchalarini erkin qabul qiladi (masalan, yanvarda, martning oxiri, sentabrga qadar). Me'yoriy qo'llanishda oy nomining "oy" leksemasi bilan birikishi ham faol (yanvar oyida, aprel oyining boshida), bu birliklar sanani aniqlashtirish va uslubiy ravonlikni ta'minlashga xizmat qiladi.

O'zbek kalendar leksikasida oy nomlari bir qatlamli tizim emas, balki tarixiy-madaniy jihatdan ko'p qatlamli nominativ majmua sifatida namoyon bo'ladi. Adabiy til me'yorida yanvar–dekabr qatori xalqaro taqvim birliklari sifatida barqarorlashgan bo'lsa-da, xalq an'anasida burj-oylar (Hamal, Savr, Javzo, Saraton, Asad, Sunbula, Mezon, Aqrab, Qavs, Jadiy, Dalv, Hut) ham parallel nominatsiya qatlami sifatida yashab keladi. Bu qatlamning lingvomadaniy ahamiyati shundaki, burj-oy nomlari yil davriyligini faqat sanash vositasi sifatida emas, balki fasliy ritm, dehqonchilik tajribasi hamda osmon jismlariga tayangan xalqona tasavvurlar bilan bog'liq holda kodlaydi; shu sababli ular matnda mavsumiy belgilash, vaqtni xalqona tasniflash va madaniy xotirani faollashtirish vazifasini bajaradi.

Shuningdek, milliylikni kuchaytirish g'oyasi doirasida oylarni "sof o'zbekcha" ruhda qayta nomlash takliflari ham ilgari surilgan. Masalan, "Adabiyot" gazetasi doirasida oy nomlarini milliy tarix va madaniyat ramzlari bilan bog'lab atash (yanvar – Vatan, fevral – Navoiy, mart – Mirzo Ulug'bek va h.k.) taklif qilingan. Bu yondashuvda nominatsiya mezoni mavsumiy belgiga emas, balki ramziy-madaniy belgi (milliy xotira va qadriyat)ga tayanganligi bilan xarakterlanadi; ya'ni oy nomi xronologik ko'rsatkich bo'lish bilan birga, identifikatsion (millatni tanituvchi) funksiyani ham zimmasiga olishi ko'zda tutiladi.

3) Badiiy diskursda oy nomlarining ifodaviy vazifalari. Badiiy diskurs tahlili shuni ko'rsatadiki, oy nomlari faqat taqvimdagi vaqt birligini bildiruvchi nom sifatida qolmaydi. Ular matnda qo'shimcha ifodaviy yuk orttirib, ma'no doirasini kengaytiradi. Xususan, oy nomlari uch yo'nalishda badiiy maqsadga xizmat qiladi: birinchidan, mavsumiy tasvirni jonlantiruvchi timsol bo'lib, tabiat holati, faslning o'ziga xos manzarasi va kayfiyatini ko'z oldiga keltiradi; ikkinchidan, xotira hamda ruhiy kechinmaning belgisi sifatida muayyan davrga xos tuyg'u, sog'inch, izitirob yoki quvonchni uyg'otadi; uchinchidan esa matnda vaqt oqimini sezdiruvchi poetik ko'rsatkich vazifasini bajarib, voqealar maromini, syujetning tezlashishi yoki sekinlashishini hamda kompozitsion o'tishlarni belgilaydi. Quyida keltiriladigan misollar aynan shu uch vazifaning badiiy

matnda qanday yuzaga chiqishini ko'rsatadi. Oy nomi ba'zan fasl manzarasini kuchaytiradi, ba'zan xotira qatlamini ochadi, ba'zan esa matnning ichki ritmini ushlab turuvchi semantik tayanch sifatida ishlaydi. Quyida badiiy diskursda oy nomlarining denotativ (taqvimiy) ma'nodan tashqari konnotativ (qo'shimcha ma'no) vazifalarini ko'rsatuvchi o'zbekcha va fransuzcha misollar hamda ularning qisqa tahlili keltiriladi.

“Sentyabr quyoshi silaydi iliq

Yuzimiz, yelkamiz, qo'llarimizni”[7].

Ushbu parchada sentyabr nomi faqat taqvimiy belgi emas, balki “kuz iliqligi”, “tabiatning muloyimligi” kabi mavsumiy timsolni ishga soladi. Oy nomi semantik markazga aylanib, iqlimiy-hissiy manzarani (iliqlik, sokinlik) poetik tasvirning tayanch belgisi sifatida mustahkamlaydi.

“Il fait novembre en mon âme —

Et c'est le vent du Nord qui clame”[8].

Bu parcha tarkibidagi novembre oy nomi taqvimiy vaqtni belgilash uchun qo'llanmayapti. Aksincha, u shoirning ichki holatini nomlashga xizmat qiladigan badiiy belgi vazifasini bajaradi. “Il fait novembre” konstruksiyasi odatda tashqi muhitga (ob-havo, fasl holatiga) nisbatan aytiladi, biroq “en mon âme” (ruhiyatimda, qalbimda) birikmasi bu “fasl holati”ni ichki olamga ko'chiradi. Natijada oy nomi denotativ (taqvimiy) ma'nodan chiqib, konnotativ (qo'shimcha) ma'noda “ruhiy iqlim”ni bildiruvchi belgi sifatida faollashadi.

“Aprel. Olmaota. Tongotar. Jimlik.

Bir yengil shabboda oqadi ravon”[9].

“Aprel. Olmaota. Tongotar. Jimlik.” tarzidagi bo'laklangan, qisqa jumlar xotiraning tiklanish uslubini eslatadi. Go'yo muallif bir voqeani izchil hikoya qilmay, balki ongida muhrlangan tasvirlarni ketma-ket qayd etadi. Oy nomi (Aprel) – vaqt belgisi, joy nomi (Olmaota) – masofa belgisi, “tongotar” – hodisani sodir bo'lish pallasini, “jimlik” – falokat oldi (yoki xabar yetib kelgan) onining ruhiy sukunati. “Aprel” so'zi birgina vaqtni bildirmaydi, balki muayyan tarixiy falokat (Toshkent zilzilasi) bilan bog'langan ruhiy larzani ham o'z ichiga oladi. Shu bois oy nomi bu yerda “xotira signali” vazifasini bajaradi.

“Je me souviens des soirs en mai sur la terrasse

L'odeur d'un oranger engourdisait l'espace”[10].

Ushbu misrada “mai” (may) oy nomi taqvimiy vaqtni ko'rsatish vazifasidan chiqib, xotirani uyg'otuvchi va kechinmani jonlantiruvchi diskursiy belgi sifatida ishlatilgan. “Je me souviens...” (Men eslayman...) konstruksiyasi xotiraning bevosita faollashganini bildiradi. Uning ortidan kelgan “en mai” birikmasi esa esdalikning vaqt koordinatasini emas, balki esdalikka xos hissiy muhitni ifodalaydi. Ya'ni “may oxshomlari” deysiz orqali muallif o'quvchi ongida bahor oxiriga xos iliqlik, hushbo'y hidlar, sokinlik va nozik sezgilar bilan bog'liq tasavvurlarni uyg'otadi; oy nomi shu tasavvurlarni jamlovchi semantik tayanchga aylanadi.

Muhokama. Natijalar shuni ko'rsatadiki, fransuz tilidagi oy nomlari nomlanishning mazmuniy asoslari kuchli

ADABIYOTLAR

1. Маслова В. А. Лингвокультурология: учеб. пособие для студ. высш. учеб. заведений. – М.: Издательский центр «Академия», 2001. – 208 с.
2. Телия В. Н. Русская фразеология. Семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты. – М.: Языки русской культуры, 1996. – 288 с.
3. Суперанская А. В. Общая теория имени собственного. – М.: Наука, 1973. – 366 с.
4. Никонов В. А. Введение в топонимику. – М.: Наука, 1965. – 179 с.
5. Rey A. Dictionnaire historique de la langue française. – Paris: Le Robert, 2022. – 2 vol. – 408 p.
6. Bloch O., von Wartburg W. Dictionnaire étymologique de la langue française. – Paris: PUF, 2008. – 322 p.
7. Abdulla Sher. Yonayotgan yo'l: [she'rilar, balladalar, doston va tarjimalar]: nashr uchun mas'ul muharrir M. Ismoil. – Toshkent: G'.G'ulom nomidagi nashriyot–matbaa ijodiy uyi, 2007 – 152 b.
8. Verhaeren É. Poèmes. Tome I. – Paris. Société du Mercure de France, 1895. – 84 p.
9. Usmon Azim. Saylanma. “G'afur G'ulom haqida hujjatli fantaziya” she'ri – T.: “SHARQ”. 1995. –B.98.
10. Noailles A. Les Éblouissements. – Paris, 1907. – 4 p.

bo'lgan turga kiradi. Ya'ni oy nomlari tarixiy voqelik va qadimgi tasavvurlar bilan uzviy bog'langan holda shakllangan va bugungi kungacha shu ma'no qatlamlarini saqlab qolgan. Shuning uchun bu nomlar matnda qo'llanganda o'quvchi ongida oldindan mavjud bo'lgan madaniy bilimlar, tarixiy assotsiatsiyalar va qadriyatlar o'z-o'zidan faollashadi. Sentyabr–dekabr kabi oy nomlarida son ma'nosini bildiruvchi ildizlar saqlangan bo'lsa-da, hozirgi oy tartibi bilan to'liq mos kelmasligi tilda tarixiy izlarning uzoq yashab qolishini ko'rsatadi. Demak, bunday nomlar tilning eski holatni saqlab qolishga moyilligini, ya'ni til xotirasining barqaror ishlashini yaqqol namoyon etadi.

O'zbek adabiy tilidagi oy nomlari esa, asosan, xalqaro taqvim tizimiga mansub nomlarning o'zlashgan shakllari sifatida me'yordashgan. Bu holat oy nomlarining shakllanishi ko'proq tashqi manbaga tayanganini, nomlash jarayoni esa umumiy taqvim andozasiga moslashish ehtiyoji bilan izohlanishini anglatadi. Biroq o'zbek madaniy muhitida burj-oylar (Hamal, Savr va boshqalar) hamda hijriy-qamariy oylar (Muharram, Safar va boshqalar) qatlamining saqlanib kelishi nomlanishning ichki madaniy tayanchlarini uzluksiz ravishda tiklab turadi. Shu sababli o'zbek tilidagi kalendar nomlarini faqat bitta qator (yanvar–dekabr) bilan cheklab bo'lmaydi; aksincha, uni tarixiy, diniy va xalqona tajribaga suyangan bir necha qatlamdan iborat tizim sifatida talqin qilish metodologik jihatdan maqsadga muvofiqdir.

Lingvomadaniy yondashuvda oy nomlari ko'pincha fasllar bilan bog'liq umumiy tasavvurlar orqali ma'no kasb etadi: bahor yangilanishni, yoz yetilishni, kuz yakun va so'nishni, qish esa sokinlik hamda ichki jamlanishni anglatadigan timsollarga aylanadi. Bunday tasavvurlar oy nomlari orqali badiiy matnda mustahkamlanadi va o'quvchi ongida ma'no uyg'otadi. Adabiy diskursda oy nomlari ko'pincha ko'chma ma'noda ishlatilib, biror ruhiy holatni, kechinmani yoki mavsumiy kayfiyatni ifodalaydi; masalan, “noyabr” timsoli ayrim matnlarda ichki sovuqlik, xiralik va siqilish holatini jamlovchi semantik markaz vazifasini bajaradi.

Xulosa. Tadqiqot natijalari fransuz va o'zbek tillaridagi oy nomlari taqvimiy birlik bo'lish bilan birga, tarixiy-madaniy mazmunni saqlovchi va diskursda qo'shimcha ma'no uyg'otuvchi lingvomadaniy birlik ekanini tasdiqladi. Fransuz oy nomlari rim taqvimi an'analarga tayangan holda tarixiy, mifologik va shaxs nomlari bilan bog'liq qatlamlarni saqlab keladi; sentyabr–dekabr qatoridagi son ildizlarining hozirgi oy tartibi bilan to'liq mos kelmasligi esa tilning tarixiy xotirasi barqaror ishlashini ko'rsatadi. O'zbek adabiy tilida oy nomlari asosan xalqaro taqvim tizimiga moslashgan o'zlashma shakllarda me'yordashgan bo'lsa-da, burj-oylar hamda hijriy-qamariy oylar qatlamining parallel mavjudligi kalendar nominatsiyasining ko'p qatlamli tabiatini yuzaga chiqardi. Bu holat o'zbek tilida oy nomlari tizimini faqat sinxron me'yor bilan cheklamasdan, tarixiy va madaniy qatlamlar kesishgan majmua sifatida talqin etish zarurligini ko'rsatadi.